



## ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES ON IMPROVING HUMAN DEGREE ON THE BASIS OF TRADE UNIONS IN MODERN SOCIETY

**Khamidjon Sayidovich Beshimov**

Independent Researcher of Bukhara State University  
Deputy Chairman of the Bukhara Regional Council of  
the Federation of Trade Unions of Uzbekistan  
Email: [beshimovhamid@gmail.com](mailto:beshimovhamid@gmail.com)  
Bukhara, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** trade unions, human dignity, international experience, social partnership, labor rights, decent work, social protection, international labor standards, employee interests, civil society, social justice, labor relations.

**Received:** 18.07.26

**Accepted:** 19.07.26

**Published:** 20.07.26

**Abstract:** This article analyzes advanced international experiences aimed at improving human dignity through trade unions in modern society. The activities of trade unions in Europe, the USA and Asian countries to protect labor rights, create decent working conditions, improve social protection and develop social partnership are studied. The impact of international labor standards and trade union mechanisms on ensuring the principle of human dignity is highlighted. Based on the results of the study, practical proposals and recommendations were developed to improve the activities of trade unions and enhance human dignity in Uzbekistan.

## ZAMONAVIY JAMIYATDA KASABA UYUSHMALARI NEGIZIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHGA OID XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

**Xamidjon Sayidovich Beshimov**

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashi raisi o'rinbosari  
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
Email: [beshimovhamid@gmail.com](mailto:beshimovhamid@gmail.com)  
Buxoro, Uzbekistan

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** kasaba uyushmalari, inson qadri, xalqaro tajriba, ijtimoiy sheriklik, mehnat huquqlari, munosib mehnat, ijtimoiy

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda kasaba uyushmalari orqali inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan

himoya, xalqaro mehnat standartlari, xodimlar manfaatlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, mehnat munosabatlari.

ilg'or xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Yevropa, AQSh va Osiyo davlatlarida kasaba uyushmalari mehnat huquqlarini himoya qilish, munosib mehnat sharoitlari yaratish, ijtimoiy himoyani takomillashtirish va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan faoliyat o'rganilgan. Xalqaro mehnat standartlari va kasaba uyushmalari mexanizmlarining inson qadri tamoyilini ta'minlashdagi ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirish va inson qadrini yuksaltirishga doir amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА НА ОСНОВЕ ПРОФСОЮЗОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

**Хамиджон Сайидович Бешимов**

*Заместитель председателя Бухарского областного совета*

*Федерации профсоюзов Узбекистана*

*Независимый исследователь Бухарского государственного университета*

Email: [beshimovhamid@gmail.com](mailto:beshimovhamid@gmail.com)

*Бухара, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** профсоюзы, человеческое достоинство, международный опыт, социальное партнерство, трудовые права, достойная работа, социальная защита, международные трудовые стандарты, интересы работников, гражданское общество, социальная справедливость, трудовые отношения.

**Аннотация:** В данной статье анализируется передовой международный опыт, направленный на повышение человеческого достоинства посредством профсоюзов в современном обществе. Изучена деятельность профсоюзов в Европе, США и странах Азии по защите трудовых прав, созданию достойных условий труда, улучшению социальной защиты и развитию социального партнерства. Подчеркивается влияние международных трудовых стандартов и профсоюзных механизмов на обеспечение принципа человеческого достоинства. На основе результатов исследования разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию деятельности профсоюзов и повышению человеческого достоинства в Узбекистане.

**Kirish.** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev boshchiligidagi islohotlarning bosh g‘oyasi xalqni rozi qilish va inson qadrini yuksaltirishdan iborat. Yangi O‘zbekiston kontsepsiyasida amalga oshirilayotgan barcha o‘zgarishlarning markazida inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari, qadr-qimmati hamda manfaatlari turadi [1, 14–15-b.]. Globallashuv, yangi texnologik inqiloblar, mehnat bozoridagi raqobat va ishchi kuchi mobilligi ortishi sharoitida kasaba uyushmalari inson qadri [2], mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va manfaatlarini ta‘minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois xalqaro tajribalar tahlili kasaba uyushmalari faoliyatining turli modellarini, ularning inson qadrini ta‘minlashdagi samarali yo‘nalishlarini va muammolarini anglash imkonini beradi [3].

Kasaba uyushmalari – ishchilar va xizmatchilarning ixtiyoriy ravishda birlashgan, mehnat munosabatlarida ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlardir. Ular orqali ishchilar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy huquqlarini ham ifoda etadilar [5]. Shu bois kasaba uyushmalari demokratik jamiyatlarda fuqarolik institutlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT/ILO) qabul qilgan asosiy konvensiyalar – 87-konvensiya (birlashish erkinligi) va 98-konvensiya (kasaba uyushmalari huquqlari) – kasaba uyushmalari faoliyatining xalqaro me‘yoriy asosini tashkil etadi. Ushbu me‘yorlar asosida turli mamlakatlarda inson qadrini ta‘minlashning turlicha yo‘nalishlari shakllangan [6]. Yevropa davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasaba uyushmalari faqat ish haqini belgilashda yordamchi tashkilot emas, balki keng ijtimoiy siyosatning ishtirokchisi hisoblanadi. Germaniyada “ishchi kengashlari” instituti orqali kasaba uyushmalari mehnat sharoitlari, xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. “Mitbestimmung” – ya‘ni qo‘shma boshqaruv modeli – ishchilarning korxona kengashlariga kirishi va strategik qarorlarda ovoz berish huquqini kafolatlaydi. Bu inson qadrini yuksaltirishning amaliy mexanizmi sifatida xizmat qiladi [7].

Shvesiya, Norvegiya va Daniya kabi Skandinaviya mamlakatlarida “ijtimoiy sheriklik” modeli keng tarqalgan. Bu yerda kasaba uyushmalari, ish beruvchilar va davlat o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik mehnat bozorida barqarorlikni ta‘minlaydi. Mehnat shartnomalari, ish haqi, ish vaqti, ta‘tillar, pensiya va ijtimoiy himoya bilan bog‘liq barcha masalalar kasaba uyushmalari ishtirokida hal qilinadi. Shvesiyada kasaba uyushmalari aholining katta qismini qamrab olib, bu mamlakatda ijtimoiy tenglik darajasini yuqori, kambag‘allik ko‘rsatkichini esa past saqlashga hissa qo‘shmoqda [8].

Fransiyada kasaba uyushmalari nisbatan tarqoq tashkil topgan bo‘lsada, ularning siyosiy ta‘sir doirasi katta. Pensiya islohotlari va ish vaqti me‘yorlariga doir masalalar bo‘yicha ommaviy chiqishlar inson qadrini ta‘minlashda jamoaviy harakatning ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Angliyada esa “Trade Unions Act” XIX asr oxirida kasaba uyushmalarining huquqiy maqomini mustahkamladi, bu siyosiy huquqlar va ijtimoiy faollikni ta‘minlashda ham muhim qadam bo‘ldi.

Italiyada kasaba uyushmalari ijtimoiy sheriklik tizimi orqali davlat va ish beruvchilar bilan uch tomonlama muzokarlarda ishtirok etib, ishchilar manfaatlarini himoya qiladi. Belgiya va Niderlandiyada esa “ijtimoiy dialog” deb ataluvchi jarayon: har bir ijtimoiy-iqtisodiy qaror ishchilar va ish beruvchilar vakillari bilan maslahatlashib qabul qilinadi [9].

AQSh va Kanada tajribasi Yevropa modelidan farq qiladi. Bu mamlakatlarda kasaba uyushmalari ko‘proq ish haqi, ish vaqti, xavfsizlik standartlari kabi iqtisodiy masalalarga yo‘naltirilgan. XX asrning birinchi yarmida “Nyu-Dil” davrida qabul qilingan qonunlar ishchilar uchun pensiya, tibbiy sug‘urta va ta‘til kunlarini kafolatlashda muhim rol o‘ynagan. Keyingi o‘n yilliklarda kasaba uyushmalari ta‘siri biroz pasaydi, biroq hozir yangi raqamli iqtisodiyotda ular ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy adolat sohalarida keng ko‘lamli harakatlarni tashkil etmoqda.

Yaponiyada kasaba uyushmalari “korporativ” tamoyil asosida, asosan korxonalar darajasida faoliyat yuritadi. Mehnat jamoasi “katta oila” sifatida qaraladi, ishchilarning uy-joy, tibbiy xizmat va ta‘lim sohasidagi ehtiyojlari qondiriladi. “Umrbod ish bilan ta‘minlash” modeli uzoq yillar inson qadrini ta‘minlashning asosi bo‘lib keldi. Janubiy Koreyada esa 1980–1990-yillardagi demokratiya kurashlarida kasaba uyushmalari siyosiy kuch sifatida maydonga chiqqan; hozirda mehnat haqini oshirish va ish joylarida xavfsizlik standartlarini ta‘minlash yo‘lida faol harakat qilmoqda [10].

Xitoy Xalq Respublikasida kasaba uyushmalari davlat tizimiga integratsiya qilingan holda faoliyat yuritadi. “Xitoy umummilliy kasaba uyushmalari federatsiyasi” (ACFTU) millionlab ishchilarni qamrab olgan bo‘lsa-da, uning faoliyati ko‘p hollarda davlat va partiya siyosatiga uyg‘unlashgan. So‘nggi yillarda xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ko‘payishi natijasida xavfsiz mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoya masalalari kun tartibiga chiqmoqda [10].

Turkiyada kasaba uyushmalari davlat bilan uzviy bog‘liqlikda faoliyat yuritib, inflyatsiya yuqori bo‘lgan davrlarda ish haqini oshirish masalasida muzokaralar olib boradi. Hindistonda esa kasaba uyushmalari turli siyosiy partiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir tomondan ishchilarning turli platformalar orqali manfaatini ifoda etish imkonini beradi, ikkinchi tomondan siyosiy raqobat inson qadriga oid aniq masalalarning yetarlicha hal etilmasligi xavfini tug‘diradi. Shu sababli so‘nggi yillarda mustaqil kasaba uyushmalari faoliyati kengaymoqda [11].

Ko‘rfaz davlatlarida (Saudiya Arabistoni, Qatar, BAA) millionlab mehnat migrantlari faoliyat yuritadi. Ko‘p hollarda ularning huquqlari cheklangan bo‘lgani uchun xalqaro tashkilotlar va mahalliy kasaba uyushmalari migrantlar uchun huquqiy himoya mexanizmlarini yaratishda ishtirok etmoqda [12].

Lotin Amerikasida – Braziliya, Argentina va Meksikada – ijtimoiy tengsizlik yuqoriligi sababli kasaba uyushmalari faqat ish joyidagi huquqlarni himoya qilish bilan cheklanmay, ijtimoiy adolat, kambag'allikni qisqartirish va ishsizlikka qarshi kurashda ham ishtirok etadi. Afrika qit'asida kasaba uyushmalari murakkab tarixiy sharoitlarda rivojlangan. Janubiy Afrika Respublikasida aparteid tuzumiga qarshi kurashda kasaba uyushmalari muhim siyosiy kuch bo'lgan. Bugungi kunda ham ular mehnat huquqlari bilan birga irqiy va ijtimoiy adolatni ta'minlash masalalarida faol ishtirok etadi [13].

Raqamli iqtisodiyot va yangi muammolar.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi inson qadri masalasini yanada murakkablashtirmoqda. "Gig-iqtisodiyot" (Uber, Bolt, Amazon kabi platformalar) an'anaviy mehnat shartnomalariga to'g'ri kelmaydi, bunday ishchilar mehnat kodeksi bilan to'liq himoyalanganmaydi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, kasaba uyushmalari bu sohalarda yangi tashkiliy modellar yaratmoqda: Italiya va Ispaniyada kurerlar hamda onlayn-platforma ishchilari uchun alohida kasaba uyushmalari paydo bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2025 yil 17 oktabr kuni kasaba uyushmalari faollari bilan uchrashuvida platformali bandlik (IT dasturchi, veb-dizayner, taksi haydovchisi, kurer kabi) va mahalla institutlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarurligini ta'kidladi. [4, 577–578-b.]

Shuningdek, kasaba uyushmalari gender tenglikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Skandinaviya davlatlarida kasaba uyushmalari ayollar uchun teng ish haqi, ish va oilaviy hayot uyg'unligi, bolali ayollarga qo'shimcha imtiyozlar berish orqali ularning qadrini yuksaltirgan. Germaniya va Niderlandiyada kasaba uyushmalari ishchilarning malaka oshirish dasturlarida faol ishtirok etadi, chunki inson qadri uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi bilan ham belgilanadi [14].

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish va ekologik barqarorlik masalalarida ham kasaba uyushmalari faol. Germaniya va Niderlandiyada ular ekologik standartlarni ishlab chiqish jarayonlarida ishtirok etib, inson qadrini sog'lom va xavfsiz muhitda yashash huquqi bilan bog'laydi.

Xalqaro hamkorlik va O'zbekiston tajribasi.

Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi (ITUC), XMT va Yevropa kasaba uyushmalari konfederatsiyasi (ETUC) orqali turli mamlakatlardagi ishchilar manfaatlari global darajada himoya qilinmoqda. Bolalar mehnatiga qarshi kurash, majburiy mehnatni tugatish, gender tenglik va diskriminatsiyaga qarshi choralar xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilmoqda.

2024 yilda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasiga a‘zo bo‘ldi. [4, 707-b.]

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan beri kasaba uyushmalari Federatsiyasi xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro tajriba almashishga intilib kelmoqda. 1995 yilda 22 ta xorijiy kasaba uyushmalari markazlari bilan hamkorlik o‘rnatildi; 4 yil davomida 74 nafar xodim xorijda tajriba almashdi; Germaniya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Hindiston, Turkiya kabi 50 dan ortiq birlashma bilan doimiy aloqa saqlandi. [4, 72–73-b.]

2023 yil 22 sentyabrda Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkiloti ta‘sis etildi (Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston).

2024 yil noyabrda “Yangi ijtimoiy shartnoma: Yevropa va Markaziy Osiyo kasaba uyushmalari nigohida” mavzusidagi xalqaro konferensiyada mintqa uchun muhim Rezolyusiya qabul qilindi. [4, 683–685-b.]

2025 yil 10–11 sentyabr Toshkentda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan XMT va XKUK hamkorligida “Xalqaro mehnat normalarini ilgari surishda kasaba uyushmalari roli” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Forumda 160 nafar vakil, jumladan 54 xorijiy mehmon ishtirok etdi. [15]

**Xulosa.** Yuqoridagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatda kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda universal vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, ishchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tenglik va adolat g‘oyalarini ilgari suradi.

Uchinchidan, inson huquqlarini ta‘minlab, demokratik munosabatlarni rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlariga mos yangi mexanizmlar ishlab chiqadi.

Turli mamlakatlar tajribasi – Skandinaviyada ijtimoiy sheriklik, Yaponiyada korporativ madaniyat, AQSh va Yevropada huquqiy kafolatlar – shundan dalolat beradiki, kasaba uyushmalari milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanishi zarur. Inson qadri va uning huquqlari hurmat qilingan jamiyatda barqaror taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik ta‘minlanadi. Shu bois xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va milliy sharoitlarga moslashtirish orqali zamonaviy jamiyatda inson qadrini yuksaltirish yanada samarali amalga oshirilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. 2022 yil 28 yanvar, PF–60-son.

4. Rafiqov Q., Abdukarimov I., Sharipov H., Abdukarimova, Klyaskiy G. “O‘zbekiston kasaba uyushmalari: 120 yil Xalq bilan”, 2-tom. – Toshkent, 2025.
5. Rafiqov Q. “Vatan va millat qay‘g‘usi”. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. 2023 yil 11 sentabr.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 6 dekabr.
8. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020–2025 yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
9. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020–2025 yillardagi faoliyati bo‘yicha ma‘lumotnoma.
10. International Labour Organization. Decent Work Agenda. – Geneva: ILO, 2023.
11. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. – Geneva: ILO, 2024.
12. International Trade Union Confederation. Global Rights Index 2024. – Brussels: ITUC, 2024.
13. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: UN, 2015.
14. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
15. Federation of Trade Unions of Uzbekistan. Faoliyat to‘g‘risidagi hisobot materiallari. – Toshkent, 2024.